

BABAJANOVA
Nilufar Tajimuratovna

“Ingliz fililogiyasi” kafedrası v.b.dotsenti
“Alfraganus University”
nilufartajimuratovna@gmail.com
0009-0007-6953-6152

**INGLIZ ADABIYOTIDA AYOL ICHKI OLAMINING BADIY TASVIRI: MILLIY-
MADANIY TAMOYILLAR TALQINIDA**

Annotatsiya:

Turli tarixiy davrlarda yaratilgan ingliz badiiy asarlarida ayol ichki olamini tasvirlashda turli tendensiyalar shakllanib, ular diniy qarashlar, gender muammolari va milliy-madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Ushbu maqolada Dante Gabriel Rossetti, Uolter Skott, Charlz Dikens va Virjiniya Vulfning asarlariga tahliliy yondashilib, ularda ayol obrazlarini yaratishda qo‘llangan stilistik vositalar o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Viktoriya davr adabiyotida ayollar ko‘proq jamiyat odob-ahloq me‘yorlariga mos ravishda ideal ayol sifatida tasvirlangan bo‘lsa, modernizm da ularning ichki kechinmalarini chuqur o‘rganishga e‘tibor qaratilgan. Xulosa shuki, ingliz adabiyotida ayol ichki olamini tasvirlash milliy-madaniy kontekst bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, har bir davrda jamiyatning gender stereotiplari va qadriyatlariga muvofiq shakllangan. Tadqiqot ingliz yozuvchilarining ayol ichki olamini badiiy vositalar yordamida tasvirlanish usullari va bunda milliy-madaniy tamoyillarning aks ettirilishi bilan bog‘liq masalalarni tushunishga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: ingliz ayoli, ichki olam, stilistik vositalar, Viktoriya adabiyoti, modernizm, gender tadqiqotlari.

**THE ARTISTIC REPRESENTATION OF WOMEN'S INNER WORLD IN ENGLISH
LITERATURE: INTERPRETATION WITHIN NATIONAL-CULTURAL PRINCIPLES**

Annotation:

Throughout history, literary works have depicted the image of women differently, influenced by the socio-political climate, religious beliefs, and cultural factors of each era. English literature has witnessed significant tendencies in portraying women's inner world, shaped by religious views, gender roles, and national-cultural factors. This study explores these tendencies in English literature through different historical periods, focusing on the Victorian Medieval era and the Victorian period. By analyzing literary texts, such as the works of Dante Gabriel Rossetti, Walter Scott, Charles Dickens, and Virginia Woolf, this paper examines how stylistic devices are used to portray women's emotions, struggles, and societal

expectations. This study contributes to understanding the literary strategies used to convey female characters' depth and complexity.

Keywords: Women in literature, stylistic devices, Victorian literature, gender representation, modernism.

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВОПЛОЩЕНИЕ ВНУТРЕННЕГО МИРА ЖЕНЩИНЫ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В РАМКАХ НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫХ ПРИНЦИПОВ

Аннотация:

Образ женщины в литературе менялся с течением времени под влиянием социально-политических и культурных факторов. В английской литературе сформировались различные тенденции в изображении внутреннего мира женщин, тесно связанные с религиозными взглядами, гендерными ролями и национально-культурными особенностями. В данной статье рассматриваются эти тенденции через анализ произведений Данте Габриэля Россетти, Вальтера Скотта, Чарльза Диккенса и Вирджинии Вулф. Особое внимание уделяется стилистическим приемам, которые позволяют глубже раскрыть внутренний мир женских персонажей. Результаты исследования показывают, что в викторианской эпохе женские персонажи изображались идеальными, соответствующими моральным нормам, а модернизм стремился к глубокому изучению их внутреннего мира. Исследование способствует лучшему пониманию способов передачи женского образа через художественные средства.

Ключевые слова: Образ женщины, стилистические приемы, викторианская литература, модернизм, гендерные исследования.

KIRISH

Jamiyatda sodir bo'layotgan siyosiy-iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar insoniyat tafakkuriga ta'sir qilib, jamiyat qarashlari adabiyot va san'atda aks etadi. Asrlar davomida ingliz adabiyotida insonni tasvirlash, jumladan ayol ichki olamini tasvirlashda bir qancha tendensiyalar shaklandi va ular diniy qarashlar, gender masalalari, milliy-madaniy faktorlar bilan chambarchas bog'liq ravishda o'zgarib keldi. Bu borada ingliz adabiyotini bir necha davrlarga bo'lib o'rganamiz:

I. "Viktoriya davri o'rta asrchiligi" (Victorian Medievalism) 1820-yildan 1850-yilgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda odamlar sanoat inqilobi keltirib chiqargan tartibsizliklardan qochib, o'rta asrlardagi ma'naviyat, ijtimoiy tartib va qadriyatlarni o'z hayotlariga qaytarishga intilishadi [1]. "Pre-Rafaelitlar" atamasi ushbu davrda yashagan yozuvchi va rassomlar guruhi bilan bog'liq bo'lib, ular 15-asrda yashagan san'atkor Rafaelgacha bo'lgan davrdan ilhomlanadi, sanoat va moddiy dunyodagi axloqsizliklardan

qochishga urinadi. San'atshunos tanqidchi Rohan Amanda Maitzen Pre-Rafaelitlar ijodini o'rganib, ularning o'rta asrlarni diniy va ijtimoiy tartib va uyg'unlik davri sifatida ideallashtirganini aytadi [2]. Bu davrda mashhur shoir va rassomlar ideal ayol tasviriga, xususan, ayol bokiraligini madh etishga katta qiziqish bildirishgan. Masalan, Dante Gabriel Rossetting suratlaridan biri *Bokira Maryamning bolalik yillari* (1848-49) deb nomlanib, jamiyatda qabul qilingan ideal ayolni aks ettirgan. Ushbu surat orqali Rossetti ayollarning an'anaviy uy-ro'zg'or mashg'ulotlarini bajarayotganini tasvirlab, ular hayotidagi patriarxal nazoratni ta'kidlagan. O'z badiiy asarlari haqida gapirar ekan, Rossetti ayollar hayotidagi turli bosqichlarni ajratib ko'rsatadi: "Mening suratlarim ayolning mukammallik ramzi edi. Bokira Maryam eng yuksak timsol sifatida tanlangan..." (Munich, 95). Unga ko'ra, ayol bokiraligi faqat bolalik bilan cheklanmay, voyaga yetganda ham davom ettirilishi kerak edi.

II. Viktoriya davri: Keyingi davr Viktoriya davri bo'lib, bu davr ingliz adabiyoti Britaniya qirolichasi Viktoriya (1837 yildan 1901 yilgacha) hukmronligi davrida yozilgan adabiyotlarni o'z ichiga oladi. Rudyard Kipling, Uilyam Tekkeray, opa-singil Brontelar, Charlz Dikkins va Jorj Eliot kabi mashhur yozuvchilar bu davrning muhim yozuvchilari bo'lsa, Alfred Tennyson va Robert Brauning ushbu davrning asosiy shoirlari, Jorj Bernard

Shou va Oskar Uayld esa asosiy dramaturglari hisoblanadi. Viktoriya davrini ingliz romanchiligining oltin davri deb hisoblash mumkin. Adabiyotda feminizm harakatining ikki bosqichi ham ushbu davrga to'g'ri keladi. Bu davr ayollarning azob-uqubatlari va sabr-bardoshlilik bilan tanilgan [3]. Angliya adabiyotida milliy xarakter tushunchasi, ayniqsa, viktoriya davrda shakllangan bo'lib, bu davr milliy o'ziga xoslik va madaniy qadriyatlarni aks ettirgan eng muhim davrlardan biri hisoblanadi. Milliy identifikatsiya jarayonida adabiyot va madaniy tamoyillar muhim o'rin tutadi, bu esa milliy xarakterning tilda aks etishiga sabab bo'ladi [4].

Adabiyotda ijobiy ayol qahramonlar uchun odob-axloq masalasi muhim jihat bo'lib, bu ularning ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar amal qilinadigan tamoyil hisoblangan. Bu davr ingliz adabiyotida ayol obrazining tasviri haqida gap ketganda, "erkaklar" va "ayollar" adabiyotini aniq ajratish muhimdir. Bu davrda yorqin ijod qilgan erkak yozuvchilardan Charlz Dikkinsni misol qilish mumkin. Charlz Dikkins asarlarida ayol obrazlari turli ijtimoiy qatlamlarga mansub, ammo hamisha ideal va fazilatli sifatlarda tasvirlangan. Ushbu ayollar yumshoqliklari va ijtimoiy hayotda passivliklariga qaramay, muallif tomonidan axloqiy tamoyillarga qat'iy rioya qilishga majbur qilinadi.

Ayollar adabiyotida ayol obrazlari ko'proq haqqoniylik bilan aks ettirilgan bo'lib, bu asarlarda oila va turmush muammolari asosiy mavzu sifatida

ko'tariladi. Viktorian madaniyatida oila muhim ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa-da, Britaniyaning ramzi oilali ayol emas edi. Aksincha, viktorian Angliya ikkita asosiy obrazni yaratdi, va bular o'sha davr ingliz milliy xarakterini ifodalaydi: "Yevropa karikaturalari inglizlarni aristokrat, monokl taqqan, yoki silindr kiygan kapitalist, yoki Berberrilik qariqiz sifatida ko'rsatadi" [5]. Ushbu obraz Angliyada ayollarning holati bilan bog'liq chuqur ijtimoiy muammolardan kelib chiqqan. E. Zbrojekning ta'kidlashicha, 1830-1870 yillarda qirq foiz ingliz ayollari umuman turmush qurmagan. Turmush masalasi ingliz ayollari uchun katta muammo bo'lgan. Muallif, viktorian davrida mavjud bo'lgan "g'ayritabiiy axloqiy me'yorlar tizimi shaxsiy hayotini yo'lga qo'yishni istaganlar uchun ko'plab to'siqlar yaratganligini qayd etadi"[6].

XIX-asr oxiri XX-asr boshlariga ingliz jamiyati siyosiy og'ir vaziyat, iqtisodiy inqiroz davrini boshqan kechirdi. Birinchi Jahon urushi va undan keyingi davr insonlar hayoti va ruhiy holatiga jiddiy ta'sir qildi, bu esa adabiyotda yangi, chuqur psixologik yondashuvlarni keltirib chiqardi. Urushdan keyingi davrda yozuvchilar o'z asarlarida urushning insonlar hayotiga ta'siri, ularning iztiroblari, ichki kechinmalarini tasvirlashga harakat qildilar. Masalan, Virjiniya Vulfning "Missis Dallovey" romani Londonda bir kunlik voqealarni tasvirlab, Birinchi Jahon urushidan keyingi jamiyatning qisqacha ko'rinishini va urushning odamlar

hayotiga ta'sirini yoritadi. Bunda Imperiya va urush tanqid qilinadi, davlat-patriarxal kuchning namoyondasi va Richard Dallowayning so'zlari bilan aytganda, "jirkanch ijtimoiy tizim"ni qo'llab-quvvatlaydi. Vulfning maqsadi jamiyatni tanqid qilish va hayot, o'lim, aql va ruhiyat mavzularini keng ko'lamda o'rganish edi. Asar ko'pincha modernist adabiyot doirasida tahlil qilinadi, chunki unda Vulfning innovatsion hikoya texnikalari va qahramonlarning ichki olamini chuqur o'rganishi namoyon bo'ladi.

METODOLOGIYA

Maqolada ingliz adabiyotida ayollar obrazi va ularning ichki olami qanday tasvirlanganini o'rganish uchun quyidagi metodlar qo'llanildi:

- 1. Stilistik tahlil** – Asarlarda ishlatilgan metafora, inversiya, polisindeton, parallelizm, epitet kabi stilistik vositalar o'rganildi.
- 2. Qiyosiy tahlil** – Ayol obrazlarining tasvirlanishi Viktoriya davri va modernizm davridagi namunalariga taqqoslab ko'rib chiqildi.
- 3. Psixologik yondashuv** – Ayol qahramonlarning ruhiy holati, ularning ichki kechinmalari va jamiyatga moslashish jarayoni tahlil qilindi.

Asosan Dante Gabriel Rossetti, Walter Scott, Charles Dickens va Virginia Woolf asarlaridan olingan parchalar asosida tahliliy kuzatish olib borildi.

NATIJALAR

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki:

1. Viktoriya adabiyotida ayol obrazlari ko'proq idealistik va stereotipik tasvirlangan. Masalan, Dickensning *Kichkina Dorrit* asaridagi Emi Dorrit fidokor va itoatkor ayol sifatida gavdalangan.
2. Modernizm davrida ayollar obrazlarining murakkab psixologik jihatlari aks ettirilgan. Masalan, Virginia Woolfning *Mrs. Dalloway* romanida Klarissaning ong oqimi texnikasi orqali ayol ichki kechinmalari chuqur yoritilgan.
3. Badiiy vositalardan foydalanish orqali ayollar ichki dunyosi yanada jonli ifodalangan. Misol uchun, metafora va inversiya usullari yordamida ayollar his-tuyg'ulari kuchli tarzda tasvirlangan.

MUHOKAMA

Ushbu maqola jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida yaratilgan ingliz badiiy asarlarida ayol qahramonlarining badiiy tasviri bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida natijalarni muhokama qiladi va bunda jamiyat va madaniyat ta'siri o'rganiladi. Ingliz shoiri, rassomi va san'atkori Dante Gabriel Rossetti rasmlari va she'riyatida Maryamning fazilatlari, axloqiy pokligi, diniy e'tiqodiga sadoqatini tasvirlash orqali Viktoriya davri jamiyatida ayollarga nisbatan o'rnatilgan axloqiy talablarni ko'rsatishga intiladi:

This is that blessed Mary, pre-elect
God's Virgin. Gone is a great while,
and she
Dwelt young in Nazareth of Galilee

Unto God's will she brought devout
respect,
Profound simplicity of intellect.
And supreme patience. From the
mother's
Knee
Faithful and hopeful; wise in charity;
Strong in grave peace; in pity
circumspect.

(qtd. in Andres 54)

Uning rasmlari va she'riyati ayollarning bokiraligi va pokligini bosh motiv sifatida ulug'lagan va buni tasvirlashda ramziy oq va yorqin ko'k ranglardan foydalangan. Shuningdek, u qizil rangni Iso Masihning qoni bilan, oltin rangni esa Maryamning ilohiy maqomi bilan bog'laydi. Pre-Rafaelitlar o'z asarlarida ayollarning ideal qiyofasini tabiat va gullar bilan bog'lab tasvirlashgan va bu xususan, Rossetting she'rlari va suratlarida yaqqol ko'rinadi. Masalan, Rossetting "*Oq nilufar*" asaridagi gul ramzi bokira ayol obrazini ifodalaydi. Viktoriya davrida *oq nilufar* milliy-ma'naviy qadriyatlar, poklik va go'zallik ramzi sifatida talqin qilingan [7]. Ayollarni tasvirlashda gular metafora sifatida ishlatilgan, ya'ni ayollarning go'zalligi, nozik va zaifligi gullarga qiyoslangan [8]. Bu davr erkak yozuvchilar asarlarida ayollar ko'pincha ortiqcha ideallashtiriladi. Masalan, Uolter Skottning "*Ayvengo*" romanida Rovena — ayolning passiv va itoatkor xarakterini aks ettiruvchi ideal qahramon sifatida tasvirlanadi. Revekkaning obrazi esa bilimdon va mustahkam hayotiy pozitsiyasi bilan

ajralib turadi [9]. Quyidagi parchada Ledi Rovenaning Ayvengoga bo'lgan his-tuyg'ulari tasvirlanadi va uning ichki iztirob va hayajonlari badiiy vositalar yordamida ochib beriladi:

“Yet her heart beat quicker, and her colour rose, as she gazed on the noble form of the knight, whose successes she had admired, and whose supposed death she had mourned. A thousand conflicting

emotions rushed upon her mind.”- (“Ammo u ritsarning ulug'vor qiyofasiga qaraganda yuragi tezroq ura boshladi va yuzi qizardi. Uning muvaffaqiyatlariga qoyil qolgan va uning ehtimoliy o'limi uchun motam tutgan edi. Minglab qarama-qarshi his-tuyg'ular uning ongiga yopirildi.”)

Ushbu jumlaning stilistik tahlil qilishda uning tarkibini quyidagilarga ajratishimiz mumkin:

Uslubiy vosita	Tarkibiy qism	Funksiyasi
1. Tasviriy vositalar (Imagery)	1) <i>“her heart beat quicker”</i> 2) <i>“her colour rose”</i> 3) <i>“noble form of the knight”</i>	- qahramonning kuchli hissiy holatini tasvirlashda ishlatilgan; o'quvchiga qahramonning hissiyotlarini aniq his qilish imkonini beradi; - obrazning ichki tuyg'ularini, ya'ni ayollarga xos ibo, hayo, uyalish tuyg'ulari tashqi belgilari orqali ko'rsatilgan; - ritsarning jismoniy va ruhiy ulug'vorligini ko'rsatadi va unga nisbatan qahramonning hayrat va hurmatini ta'kidlaydi.
2. Epitetlar	<i>“noble”</i> so'zi <i>“supposed death”</i> iborasi	ritsar obrazini ulug'vorlik va qadr-qiyamat bilan bog'laydi; muallif qahramonning o'tmishda kechgan azobli his-tuyg'ularini eslatadi
3. Bo'rttirma, ya'ni mubolag'a (Hyperbole)	<i>“A thousand”</i>	haqiqiy miqdorni emas, balki hissiyotlarning ko'lami va murakkabligi bo'rttirib ko'rsatilgan.
4. Antiteza (qarama-qarshilik)	<i>A thousand conflicting emotions</i>	Bu o'zaro zid bo'lgan hissiyotlarning bir vaqtda mavjudligini ifodalaydi. “Minglab” so'zi orttirilgan ko'lamni bildirsa, “qarama-qarshi” so'zi hissiyotlarning ichki ziddiyatini aks ettiradi. Bu usul o'quvchining e'tiborini

		qahramonning ruhiy holatidagi murakkablikka qaratadi.
5.Psixologik tasvir (Inner Conflict)	“A thousand conflicting emotions rushed upon her mind” jumlasini	Bu orqali muallif qahramonning murakkab hissiyotlarini, shu jumladan quvonch, hayajon va ehtimoliy qoʻrquv yoki shubhani bir vaqtda his etishini koʻrsatadi, qahramonning ichki hissiy olamidagi ziddiyatlarni ifodalaydi.
6. Metafora	“rushed upon”	hissiyotlarning kuchliligi va ularning ongni qanday egallashini obrazli ravishda koʻrsatadi
7.Sintaktik tuzilma (Syntax)		murakkab gap tuzilmalari orqali qahramonning ichki kechinmalarini oʻquvchiga yetkazish maqsad qilingan
8.Tematik ahamiyat		Jumlada qahramonning ritsarga boʻlgan munosabatidagi hissiy xilma-xillik aks etadi. Bu, sevgi, xotira va oʻlim kabi mavzularni murakkab va ichki konfliktlar orqali ifodalaydi. Bunda qahramonning oʻz hissiyotlarini yashirincha saqlashi va ularga berilayotgan ichki ziddiyatlar stilistik jihatdan ifoda etilgan.

Ushbu jumlada ayol ichki olamini tasvirlashda milliy-madaniy tamoyillar quyidagi jihatlar orqali aks etadi:

a) Hissiyotlarning estetik ifodasi: *“her heart beat quicker, and her colour rose”* iboralari orqali ayolning hissiyotlari badiiy va nozik usulda koʻrsatilgan. Bu oʻziga xos tarzda madaniy anʼanalar va milliy qadriyatlarda ayollarning hayajon, sevgi va ehtirosini yashirin tarzda ifodalash tendensiyasini ifodalaydi.

b) Madaniy stereotiplarning taʼsiri: Ritsarga boʻlgan qiziqish, uning ulugʻvorligi va qahramonning hayajoni

orqali ayolning romantik his-tuygʻulari va ularning badiiy ifodasi jamiyatdagi madaniy stereotiplarni aks ettiradi.

Tanqidiy realizm uslubining asoschilaridan biri Dikkensning qahramonlari viktorja jamiyatidagi ayollar xulq-atvorining namunasidir. Bu xulq-atvor oʻrta sinf ayollari uchun samimiyat, tabiiylik va kamtarlik kabi xislatlarni oʻz ichiga oladi. Dikkens asarlarida bu rollar nozik tarzda aks ettirilgan va koʻpincha ayollar turli stereotipik rollarda tasvirlangan. Dikkensning “Kichkina Dorrit” romanidagi bosh qahramonlardan biri

Emi Dorritning xarakteri Viktoriya davridagi “farishtasifat ayol” stereotipini aks ettiradi. U qarzlari tufayli Marshalsi qamoqxonasiga tushgan janob Dorritning qizi Emi bo‘lib, “Kichkina Dorrit” deb tanilgan. U yaxshilik, fidoyilik va bardoshlilik timsoli sifatida tasvirlanadi. Butun hikoya davomida Emi og‘ir hayot sharoitlariga qaramay, o‘z oilasiga g‘amxo‘rlik qiladi. Bu kamtar qiz eng og‘ir vaziyatlarda ham quvonch va umid topaoladigan ichki kuchga ega. U o‘z oilasiga nisbatan mas‘uliyatni to‘liq his qiladi va jamiyat tomonidan belgilangan talablarga javob beradi. Uning obrazi orqali Dikkins jamiyatdagi tengsizlik, majburiyat va muhabbat mavzularini o‘rganadi. Dikkins sodda, lekin samarali stilistik usullar parallelizm, epitet va bilvosita metafora orqali Dorritning murakkab ichki kechinmalarini, tinch va barqaror tabiatida yashiringan his-tuyg‘ularini ifodalashga harakat qiladi. Marshalsi qamoqxonasi bu hikoyada ko‘p ma‘noli **ramz** sifatida xizmat qiladi. Bu joy nafaqat jismoniy qamoqxonani, balki personajlar duch keladigan ijtimoiy va psixologik cheklovlar uchun ham **metafora** sifatida talqin qilinadi. Asarda oilaviy munosabatlar, xususan, Emi va uning otasi o‘rtasidagi mehr-muhabbat, sadoqat va fidoyilik prizmasi orqali o‘rganiladi. Ushbu munosabatlar ko‘pincha og‘ir sharoitlar bilan sinovdan o‘tadi.

‘And what I was going to tell you, sir,’ said Little Dorrit, trembling in all her little figure and in her voice, ‘is, that I

am not to know whose generosity released him—am never to ask, and am never to be told, and am never to thank that gentleman with all my grateful heart!’ ... ‘And what I was going to say, sir, is,’ said Little Dorrit, trembling more and more, ‘that if I knew him, and I might, I would tell him that he can never, never know how I feel his goodness, and how my good father would feel it. And what I was going to say, sir, is, that if I knew him, and I might—but I don’t know him and I must not—I know that!—I would tell him that I shall never any more lie down to sleep without having prayed to Heaven to bless him and reward him. And if I knew him, and I might, I would go down on my knees to him, and take his hand and kiss it and ask him not to draw it away, but to leave it—to leave it for a moment—and let my thankful tears fall on it; for I have no other thanks to give him!’ [10]. – “Kichkina Dorrit butun vujudi va ovozi titrar ekan, “Sizga aytmoqchi bo‘lganim, janob,” dedi, “men otamni ozod qilgan odamning kimligini bilolmasam kerak—hech qachon so‘ramasligim va bu saxovatli insonning kimligini hech qachon bilmasam kerak. Unga o‘zimning chuqur minnatdorchiligimni bildirib rahmat aytolmasam kerak!” ...“Va aytmoqchi bo‘lganim, janob,” dedi Kichkina Dorrit tobora ko‘proq titrab, “agar men uni bilsam va bilishim mumkin bo‘lsa, unga aytardimki, men uning yaxshiligini qanchalik chuqur his qilayotganimni va otam ham qanchalik his qilishini hech qachon , hech qachon

bilolmasa kerak. Va yana aytmoqchi bo'lganim, janob, agar men uni bilsam va bilishim mumkin bo'lsa—lekin men uni bilmayman va bilolmasam kerak—men shuni bilamanki!—men endi hech qachon har tun Xudodan u uchun iltijo qilib baraka va mukofot so'ramasdan uxlashga yotmasligimni aytgan bo'lardim. Agar uni bilsam va bilishim mumkin bo'lsa, uning oldida tiz cho'kar, qo'lini o'pib, undan qo'lini tortib olmasligini, uni bir oz vaqtga

qoldirishini va minnatdorlik ko'z yoshlarim bilan uni yuvishga imkon berishini so'rardim; chunki men unga bundan boshqa hech qanday minnatdorchilik bildirolmayman!" dedi.

Charles Dickensning "Kichkina Dorrit" asaridagi ushbu parchada kichkina Dorritning ichki dunyosini, minnatdorchiligi va samimiy hissiyotlarini ochib beruvchi bir qator uslublar qo'llanilgan. Quyidagi jadvalda ushbu matnning uslubiy tahlili berilgan:

Stilistik vosita	So'z / jumla	Ma'no va mazmuni
1. Takrorlash va Parallelizm	<p>1. <u>am never to ask, and am never to be told, and am never to thank</u></p> <p>2. <u>that if I knew him, and I might, ... that if I knew him, and I might...</u></p> <p>3. <u>how I feel his goodness, and how my good father would feel it.</u></p> <p>4. <u>I would tell him... I would go down</u></p> <p>5. <u>To bless him and reward him</u></p>	<p>Yozuvchi bu usul yordamida qahramonning kuchli hayajon ostida chuqur minnatdorchilik bildirishga intilayotganini ifodalaydi.</p> <p>"To bless him and reward him" qismi parallel grammatik tuzilishga ega bo'lib, duo qilish (bless) va mukofotlash (reward) orqali minnatdorchilikning ikkita asosiy jihati ta'kidlangan. Ushbu parallel tuzilma iborani ritmik va ta'sirchan qiladi.</p>
3. Alliteratsiya	<p><u>kne<u>s</u> to him, and take his <u>h</u>and and <u>k</u>iss it and <u>a</u>sk</u></p>	<p>/s/ tovushining takrorlanishi hissiyotlarni yanada nozik va poetik tusda tasvirlashga xizmat qilgan.</p>
4. Polisindeton	<p>"and"</p>	<p>Ko'p martalab "va" bog'lovchisining ishlatilishi Dorritning so'zlaridagi kuchli hayajon va shoshilinchlikni ifodalaydi, his-tuyg'ular oqimini kuchaytiradi.</p>

<p>5. Epitet (Badiiy aniqlovchi sifat)</p>	<p><i>grateful heart, thankful tears</i></p>	<p>Bu iboralarda “grateful” va “thankful” soʻzlari oddiy soʻzlarga (heart, tears) hissiy va emotsional rang-baranglik beradi. Epitet sifatida ishlatilgan bu sifatlar minnatdorlik va chuqur hissiyotlarni aniq ifodalash uchun qoʻllanilgan.</p>
<p>6. Boʻlinma gap tuzilmasi (Fragmentatsiya)</p>	<p><i>but I don't know him and I must not— I know that-!</i>“ Ammo men uni bilmayman va bilmasam kerak — shuni bilaman!”</p>	<p>kabi jummalarning uzilishi Dorritning hayajoni va oʻzini bosishga urinayotganini koʻrsatadi. Ushbu usul uning ichki ziddiyatlari va oʻz his-tuygʻularini ifoda etishdagi qiynalishini yaqqol namoyish etadi.</p>
<p>7. Giperbola (Boʻrttirish)</p>	<p><i>I shall never any more lie down to sleep without having prayed to Heaven to bless him and reward him</i></p>	<p>Jumlada chuqur minnatdorlik hissi (giperbolik tarzda) ifodalangan. “Hech qachon uxlashga yotmayman” orqali Dorrit oʻz minnatdorligini kuchli va mutlaq holatda koʻrsatadi, garchi buni soʻzma-soʻz tushunmaslik kerak boʻlsa-da, hissiy taʼsirni oshirishga xizmat qiladi.</p>
<p>8. Tautologik izoh (Takroriy aniqlik)</p>	<p><i>“Never any more”</i></p>	<p>soʻzlar maʼnodosh boʻlib, bir xil fikrni kuchaytirish uchun ishlatilgan. Bu usul hissiyotning qatʼiyligini va minnatdorlikning abadiyligini ifodalaydi.</p>
<p>9. Qarama-qarshilik (Antiteza)</p>	<p><i><u>if I knew him, and I might—but I don't know him and I must not</u></i></p>	<p>“Men uni bilganimda edi, mumkin boʻlsa edi...” va “ammo men uni bilmayman va bilmasam kerak” iboralari uning kamtarligi (balki berishga hech vaqosi yoʻqligi) va minnatdorlik his-tuygʻusining oʻrtasidagi farq ulkanligini koʻrsatadi.</p>
<p>10. Jonlantirish (Personifikatsiya)</p>	<p><i>grateful heart, thankful tears</i></p>	<p>Ushbu iboralarda “heart” (qalb) va “tears” (koʻz yoshi) insoniy his-tuygʻular bilan jonlantirilgan.</p>

		Qalb minnatdorlikni his qilayotgani, ko'z yoshlar esa bu hissiyotlarni ifodalayotgani ko'rsatiladi, go'yo ular tirik mavjudotlardek tasvirlanadi.
11. Emotsional ohang	<i>trembling in all her little figure and in her voice</i>	Matn boshida keltirilgan “kichkinagina gavgasi va ovozdagi titroq” kabi tasvir Dorritning nozik va samimiy hissiyotlarini, ya'ni hayajonlanayotgani tasvirlash uchun ishlatilgan. “Kichkina” sifatining ishlatilishi uning zaifligi va kamtarona qiyofasini yanada jonlantirib ko'rsatadi.

Dickens ushbu parchada kichkina Dorritning ichki dunyosini ochib berish uchun *takrorlash, parallelizm, tasviriy vositalar, giperbola* va boshqa uslublarni mohirona qo'llaydi. Uning kamtarligi va minnatdorlikka to'la qalbi jumla tuzilishidagi bo'linmalar va hissiyotlarni aks ettiruvchi tasvirlar orqali jonlantirilgan. Bu uslublar birgalikda Dorritning his-tuyg'ularini chuqurroq anglashga imkon yaratadi va o'quvchiga uning ichki olamini yaqinlashtiradi.

XX-asr eng ko'zga ko'ringan modern yozuvchilaridan biri Virjiniya Vulf o'ziga xos uslubda obrazlar yaratadi va qahramonlar ichki kechinmalari, ularning ruhiy holatini turli badiiy vositalar orqali ochib berishga harakat qiladi. Masalan, “Missis Dallovey” romanida yozuvchi obrazlarni nafaqat tashqi olam manzaralari bilan bog'lab tasvirlaydi,

balki “Ong oqimi”(“Stream of consciousness”) hikoya usulidan foydalanib, o'quvchini qahramonlar fikrlari oqimiga kirishga undaydi. Asarda ikkita qahramon: Klarisa va Septimyslarning bir kun davomida London ko'chalari bo'ylab kezishlari asnosida ularning ichki kechinma va ruhiy holatlari parallel ravishda berib boriladi. O'quvchi asarni o'qir ekan, goh Klarisaning o'tmish xotiralariga, goh hozirgi holatiga, goh Septimusning achinarli ruhiy olamiga sayohat qiladi. Asar Klarisaning kechqurungi ziyofat uchun ertalabdan tayyorgarligi bilan boshlanib, kun yakunida Klarisaning ziyofati va Septimusning o'z joniga qasd qilishi bilan tugaydi. Asarda yozuvchi uzoq jumlar va nuqtali vergullardan foydalangan holda, qahramonning ongida bir fikrdan ikkinchisiga qanday o'tishini ko'rsatadi. Muhim jihat shundaki, Vulf uchinchi

shaxs hikoya usulidan foydalangan holda nafaqat qahramonning fikrlarini, balki ularning tuzilishini va o'z fikrlash jarayonini ham muvaffaqiyatli ifodalagan.

Virjiniya Vulf Klarissa obrazida ingliz jamiyatining ijtimoiy me'yorlari, madaniy qadriyatlari va odatiy xulq-atvorlarini o'ziga xos tarzda aks ettiradi. Quyidagi xususiyatlar Klarissaning ichki olami va o'ylarida ko'rinadi:

1. Jamiyatga moslashish va ijtimoiy mavqeni saqlash:

Klarissa o'zining ijtimoiy vazifalari va oilaviy majburiyatlarini juda qadrlaydi. Uning ziyofatlar uyushtirishga bo'lgan ishtiyoqi, mehmonlar uchun mukammal muhit yaratishga intilishi ingliz jamiyatidagi ijtimoiy mavqega katta ahamiyat berilishining bir belgisi sifatida namoyon bo'ladi. U har bir mehmonni qabul qilish, ularning xotirjamligi va mamnunligi uchun mas'uliyat his qiladi, bu esa ingliz an'analaridagi mehmondo'stlik va ijtimoiy hayotga yuqori e'tibor bilan bog'liq. *"And as she began to go with Miss Pym from the shop, climbing towards her, she felt that they were walking just like Clarissa and Peter walking in the park. But Peter — however beautiful the day might be — would come back; he would fail her; Clarissa's party would go on without him."* Bu misolda Klarissaning ziyofatlar va ularning davom etishi haqidagi o'ylariga urg'u beriladi. Bu uning ijtimoiy majburiyatlarni qanchalik qadrlashi va ularni ideal tarzda amalga oshirishga intilishini ko'rsatadi.

2. Jamiyatdagi tartib va ichki his-tuyg'ularni boshqarish:

Klarissa o'z ichki olamida katta hissiy ziddiyatlarni boshdan kechirsada, buni tashqi ko'rinishda namoyish etmaslikka harakat qiladi. Ingliz madaniyatiga xos bo'lgan o'zini tuta bilish va his-tuyg'ularni boshqarish qobiliyati uning hayotida muhim o'rin tutadi. Bu Klarissaning ichki dunyosi va tashqi dunyo o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko'rsatadi va shaxsiy his-tuyg'ularni jamiyat manfaatlarini uchun chetga surishni o'z ichiga oladi.

"But often now this body she wore (she stopped to look at a Dutch picture), this body, with all its capacities, seemed nothing—nothing at all. She had the oddest sense of being herself invisible; unseen; unknown; there being no more marrying, no more having of children now, but only this astonishing and rather solemn progress with the rest of them, up Bond Street, this being Mrs. Dalloway; not even Clarissa any more; this being Mrs. Richard Dalloway."

Ushbu parchada Virginia Vulf Klarissa Dalloveyning ichki kechinmalari va o'zini anglash jarayonini bir necha stilistik vositalardan foydalanib, **modernistik uslubni** qo'llagan holda mahorat bilan ochib beradi :

a) **ichki monolog** usuli yordamida qahramonning ongidagi murakkab kechinmalarni to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga yetkazadi va uning ongi orqali voqelikni tasvirlaydi.

b) **Epitetlar va metaforalar** orqali Klarissaning o'z tanasini begonalashgan holatda his qilishi, o'z hayoti ustidan nazorat yo'qligini sezishi ko'rsatiladi.

– **“this body she wore”** – tana shunchaki kiyim sifatida tasvirlangan, ya'ni Klarissa o'z tanasini o'zidan ajratib tasavvur qilmoqda.

– **“astonishing and rather solemn progress”** – uning Bond Street bo'ylab yurishi qandaydir rasmiy va og'ir harakat sifatida berilgan.

c) **Takrorlash** usuli qahramonning o'z shaxsiyatini yo'qotib, faqat erining ismi orqali tanilishidan tushkunlik his qilayotganini kuchaytiradi.

– **“nothing—nothing at all”**

– **“unseen; unknown”**

– **“not even Clarissa any more; this being Mrs. Richard Dalloway.”**

d) **Antiteza (Antithesis)** uning haqiqiy “men”i va jamiyat talab qilgan “men”i o'rtasidagi ziddiyatni ochib berish uchun ishlatilgan.

“not even Clarissa any more; this being Mrs. Richard Dalloway” – Klarissaning shaxsiy o'zligi va jamiyat unga yuklagan ro'li o'rtasidagi keskin tafovut ko'rsatilgan.

Nominalizatsiya va majhul nisbat (passive voice): “this being Mrs. Richard

Dalloway” – Klarissaning o'z hayoti ustidan nazorati yo'qligini va

ijtimoiy shaxsiyatining majburiyat asosida shakllanganini ko'rsatish.

e) **Ellips (gap tarkibidagi tushirib qoldirilgan elementlar) “there being no more marrying, no more having of children now”** – bu gapda fe'l mavjud emas, faqat “bo'lmasligi” haqida gap ketmoqda. U hayotining muhim bosqichlari tugaganini ta'kidlash orqali o'zini bo'sh va ahamiyatsiz his qilayotganini ifodalash maqsadida ishlatilgan.

U o'zini jamiyat tomonidan belgilangan “Missis Richard Dallovey” roli orqali qabul qiladi, lekin aslida bu rol uning shaxsiy hissiyotlari va istaklarini bosib qo'yadi. Klarissa o'z his-tuyg'ularini boshqalardan yashiradi va tashqi dunyo, ya'ni jamiyat uchun mukammal “Missis Dallovey” qiyofasini saqlaydi. Ushbu parcha uning his-tuyg'ularni yashirish orqali jamiyat talablariga moslashishga majbur ekanligini ko'rsatadi. Bu o'sha davr ingliz madaniyatida o'zini tuta bilish, o'z his-tuyg'ularini oshkor qilmaslik va o'z vazifalarini jamiyat manfaatlariga mos ravishda bajarish qadrlanganini ko'rsatadi.

3. Yolg'izlik va jamoatchilik o'rtasidagi ziddiyat:

Shaxsiy va ijtimoiy hayot o'rtasidagi muvozanatni, his-tuyg'ularni boshqarish va o'zligini saqlashga intilish — ingliz milliy xarakteridagi asosiy tamoyillardan biridir. Klarissaning o'ziga xos xususiyati — ichki yolg'izligini his qilishi, shu bilan birga, jamoat hayotida faol ishtirok

etish istagidir. U o'zini ziyofat va odamlar orasida topish orqali hayotining ma'nosini topmoqchi bo'ladi, lekin shu bilan birga, ichki iztiroblari uni yolg'izlikka tortadi. Bu ham ingliz millatiga xos shaxsiy va ijtimoiy hayot o'rtasidagi masofani saqlash tamoyiliga mos keladi. Masalan, quyidagi parchda yozuvchi Klarissaning ichki iztiroblari va ijtimoiy faolligi o'rtasidagi murakkab aloqani ochib beradi:

"She felt very young; at the same time unspeakably aged. She sliced like a knife through everything; at the same time was outside, looking on. She had a perpetual sense, as she watched the taxi cabs, of being out, far out to sea and alone; she always had the feeling that it was very, very dangerous to live even one day."[11]

a) antiteza (Antithesis) : - **"She felt very young; at the same time unspeakably aged"** - bu jumlar Klarissaning o'z his-tuyg'ularidagi ichki ziddiyatni ochib beradi. U o'zini bir vaqtning o'zida ham yosh, ham qaridek his qiladi, ya'ni jismonan faol bo'lsa-da, ruhiy jihatdan charchagan.

b) Metafora: **"She sliced like a knife through everything"** Klarissaning o'y-hayollari xuddi pichoq kabi zamon va makon sarhatlarini kesib o'tishi tasvirlangan.

d) Takrorlash: -**"very, very"** iborasi takrorlanib, hayotning xavf-xatarlarga to'la ekanligi haqidagi ichki qo'rquvini ifodalash uchun ishlatilgan. Bu va hayot oldida o'zini zaif his qilishini aks ettiradi.

- "...at the same time..." takrorlanib ayolning beqaror ruhiy holatini ifodalaydi.

e) Simvolizm: **Sea-** dengiz qahramon hayotdagi noaniqlik va yolg'izligi ramzi sifatida ishlatilgan. Klarissa jamiyatda faol bo'lish orqali ichki bo'shliqlarini to'ldirishga harakat qiladi. Shuningdek, uning ingliz madaniyatiga xos bo'lgan shaxsiy va ijtimoiy hayot o'rtasidagi masofani saqlash tamoyiliga mosligini ham ko'rsatadi. Klarissaning o'zini dunyodan uzoqda, yolg'iz va begona his qilishini ham anglashimiz mumkin.

XULOSALAR

Ayol ichki olami adabiyotda nafaqat estetik, balki ijtimoiy-madaniy jarayonlar aks ettiruvchi vosita sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Ayollarning ichki kechinmalari, ularning jamiyatdagi roli, erkinlik va shaxsiy rivojlanishiga bo'lgan talablar adabiyot orqali madaniy va ijtimoiy o'zgarishlarni aks ettirishi mumkin. Virjiniya Vulfning *"To the Lighthouse"* asaridan quyidagi misol bunga mos keladi: *"She felt like a bird for ever fluttering and dipping and making quick dashes."* Bu yerda ayol qahramonning ichki hissiyotlari o'zini tinimsiz harakat qilayotgan va qochish yo'lini izlayotgan qushga o'xshatib ifodalanadi. O'xshatish orqali uning ichki notinchligi, ichki g'alayon va erkinlik istagi obrazli tarzda tasvirlangan. Yoki Charlotte Brontëning *"Jane Eyre"* asarida Jane o'z his-tuyg'ularini quyidagicha ifodalaydi: *"I am no bird; and no net ensnares me: I am a free human being with an*

independent will.” Bu yerda Jeyn o‘zini “qush” yoki “tutqin” sifatida ko‘rsatishdan voz kechib, o‘zining erkin va mustaqil shaxs ekanligini ta’kidlaydi. Yozuvchi metafora yordamida ayol ichki olami, ozodlik va shaxsiy erkinlik istagini kuchli tarzda tasvirlaydi. Bu Jeynning ichki kuchi va qarorlarining mustahkamligini ham ko‘rsatadi.

Shunday qilib, adabiyotda ayollarning ichki olami turli madaniy kontekstlarda qanday ifodalanishini o‘rganish nafaqat ularning shaxsiy kechinmalarini chuqurroq tushunishga, balki ularning jamiyatdagi o‘rnini va madaniy o‘zgarishlar jarayonini yoritishga ham imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. McBride, William L, ed. *Sartre and Existentialism: Philosophy, Politics, Ethics, the Psyche, Literature, and Aesthetics*. Eds. William L. Mc Bride. New York and London: Garland Publishing, Inc, 1997. 59 p
2. Maitzen, Rohan Amanda. *Gender, Genre, and Victorian Historical Writing*. 1998. 66 p
3. Trigg, Stephanie. “Weeping Like a Beaten Child: Figurative Language and the Emotions in Chaucer and Malory.” *Medieval Affect, Feeling, and Emotion* 107 (2019): 25 p.
4. Hewitt K. *Understanding English Literature/ K.Hewitt*. - Oxford: Perspective Publications, 1997. – 280 p.
5. Оруэлл Дж. Англичане Дж. Оруэлл // Оруэлл Дж. «1984» и эссе разных лет. – М.: Прогресс, 1989. – 307с.
6. Зброжек Е. В. Викторианство в контексте культуры повседневности / Е. В. Зброжек // Известия Уральского государственного университета. – 2005. – № 35. – 32 с.
7. Cheney, Liana. “The Fair Lady and The Virgin in Pre-Raphaelite Art: The Evolution of a Societal Myth”. *Pre-Raphaelitism and Medievalism in the Arts*. Ed. Liana Cheney. New York: The Edwin Mellen Press, 1992., 256 p
8. Classen, Constance. *The Color of Angels: Cosmology, Gender, and the Aesthetic Imagination*. New York: Routledge, 1998. 24 p
9. Wein, T. *British Identities. Heroic Nationalism and the Gothic Novel 1764-1824* /T. Wein - Lnd.: Macmillan, 2002. – 654 p.
10. Charles Dickens “Little Dorrit” Chapter 14. https://www.online-literature.com/dickens/little_dorrit/15/
11. [Virginia Woolf](https://www.gutenberg.org/ebooks/71865) „Mrs. Dalloway“ 1925.
<https://www.gutenberg.org/ebooks/71865>